

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura  
mutaxassisligining malaka talablari*

Chirchiq – 2023

JSP OYNTK  
Dekr. № 367  
21.08.2023

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023-yil «21» 08 dagi 307-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi</i> .....	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi</i> .....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i> .....	4
1.2.1.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari</i> .....	4
1.2.2.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i> .....	4
1.2.3.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i> .....	5
1.2.4.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari</i> .....	5
2.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar</i> .....	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar</i> .....	8
2.3.3.	70910401 – <i>Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi</i> .....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	10
	Kelishuv varag'i.....	11

**1. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi**

*70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi* bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi, ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

**1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi mutaxassislik bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilarini:**

- mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida magistrarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorectorlar, o'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;
- mutaxassislikining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- magistr bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalarini;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga magistraturaga kirayotgan bakalavr diplomiga ega bo'lganlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatining sohalari:**

*70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi* – fan sohasidagi magistratura mutaxassisligi bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislika oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, oliy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

**1.2.2. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrantlar kasbiy faoliyatlnrining obyektlari:**

- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari;
- O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi va tasarrufidagi tashkilotlarda;
- umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida;
- Sport federatsiyalarida;
- Milliy olimpiya qo'mitasi va tasarrufidagi tashkilotlarda;
- Sport maktablarida;
- Sportchi tayyorlovchi oliy ta'lim muassalarida;
- sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi nutritsiologiya laboratoriylarda;
- davlat boshqaruvi organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida kompleks masalalarni yechish.

**70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha**

magistratura bitiruvchilari fan sohasidagi magistratura mutaxassisligini tamomlagandan so'ng, oliv ta'lif, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida diyetologiya, sport diyetologiyasi, gigiyena, sport gigiyenasi fanlaridan zamonaliv pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, sport muassasalarida sport dietologi sifatida ish yuritish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va termoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, sport bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda, nutritsiologiya laboratoriyalarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

**1.2.3. 70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *pedagogik (umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliv ta'lim tizimida).*

**1.2.4. 70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.**

**70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi** Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaliv ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli magistratura mutaxassisligi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;

- biokimyoviy, diyetologik va gigiyenik jarayonlar qo'llaniladigan ishlab chiqarishda, sog'liqni saqlash korxonalarida, sport sohasiga tegishli tashkilotlarda belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatish;

- pullik ta'lif xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**Oliy ta'lif, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida pedagogik faoliyatida:**

- oliy ta'lif, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish;

- o'quv fanlarini o'qitish uslubiyatini egallash;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

- o'qitilayotgan fan bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lif va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi uslublar, vositalar va shakllar tizimida o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

- kichik ilmiy xodim va yordamchi lavozimlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishi;

- ilmiy-uslubiy va boshqa texnik ishlarni bajarish;

- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta'lif yo'nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

- ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

- ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan malumotlarni tizimlashtirishda ishtiroy etish;

- sport diyetologiyasi fani sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarni tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**2. 70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

**2.1. Umumi kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammojar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrashlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlarni mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

- sportchilarni ratsional ovqatlanishini tashkil etish.

## 2.2. Kasbiy kompetensiylar:

– Magistratura mutaxassisli ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lган fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi; mutaxassislikka muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

– sport diyetologiyasiga doir boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi, ratsional ovqatlanishni to'g'ri tashkil etish diyetologiyasning asosiy birligi ekanligi, musobaqa davri ovqatlanishi, mashg'ulot davri ovqatlanishi, sportchi ish qobiliyatiga oqsil, yog' va uglevodlarning ta'sirini, Aminokislotalarning sportchilar hayotidagi o'rni, to'g'ri ovqatlanishning ahamiyatini

– sport farmakologiyasi fanining maqsadi, vazifalari, yo'nalishlari va ustublari, obyekti va predmeti; sportda qo'llash mumkin bo'lган dori vositalari, biologik faol qo'shimchalar, doping dori vositalarning sportchilarga ta'siri, tabiiy biologik faol qo'shimchalarining tuzilishi va ahamiyati va ularni tabiattdagi va inson hayotidagi roli;

– sport gigiyenasi fanining, ob'ekti, maqsadi va vazifalari, sanitariya gigiyena qoidalari, sport muassasalariga qo'yiladigan gigiyenik talablar, sportchi o'sishi, rivojlanishi, ularni fiziologik va biokimyoiy ko'rsatgichlariga gigiyenaning ta'siri, sportchi shaxsiy gigiyenasi bo'yicha tasavvurni shakllantirishi;

– sport fiziologiyasi sportchi organizmining fiziologik va morfologik xususiyatlari, o'zaro va boshqa organizmlar bilan munosabatini; moddalar almashinuvni, sportchilarning fiziologik va morfologik xususiyatlari, ularga turli omillarning ta'siri; sportchi ish qobiliyatiga ta'sir etuvchi fiziologik omillarni tahlil qila olishni o'rgatishi;

– sport biokimyosi obyekti va predmeti, fanning rivojlanish tarixi; biologik molekulalarning tuzilishi, vazifalari; biomolekulalar biosintezi, uning organizmdagi vazifalari, toliqishning biokimyoiy asoslari, sportchi ish qobiliyatiga biokimyoiy omillarning ta'siri;

– sport tibbiyoti fani asoslari, sport jarohatlari, sport jarohatlarida birinchi yordam, sportchiga tashxis qo'yishni baholash, sportchi kasallikkleri ularni aniqlash va davolash usullari;

– sportda vitaminlar va gormonlar biokimyosi fani predmeti, sportchilar hayotida vitaminlarning ahamiyati, suvda eriydigan vitaminlar, yog'da eriydigan vitaminlar, sportchilarda uchraydigan gormonal buzilishlar, gormon turlari va ularning vazifalari, kuch va chidamkorlikka ta'sir etuvchi gormon guruhlari ;

– sport genetikasi fanining maqsad, vazifalari, pedmeti va o'rganish usullari, O'zbekistonda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarning rivojlanishi; irsiyatning moddiy asosi va genlarning o'zaro ta'sir xillari; mutatsiya, irsiyatning xromosoma nazariyasi; populyatsion genetika; odam genetikasi va uning jamiyatdagi roli; belgi va xususiyatlarning irsiylanish va o'zgaruvchanlik qonuniyatları; molekular genetika, gen va gen konsepsiysi; molekular markerlar; DНK darajasidagi tahlili; tibbiyot genetikasi;

– odam va hayvonlar fiziologiyasining ob'ekti, predmeti, vazifalari va o'rganish metodlari. ko'p hujayrali organizmning tarkibiy qismlari: to'qimalar, organlar va sistemalar; fiziologik funksiyalar boshqariluvining umumiyl prinsiplari; organizm sistemalarining fiziologiyasi, organizm faoliyat ko'rsatishi qonuniyatları;

– ilmiy tadqiqot metodologiyasi fani ob'ekti, predmeti, vazifalari va o'rganish metodlari, rivojlanish tarixi, metodologik jarayonlari.

– psixologiya va pedagogika nazariyasi, o'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta'limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa prinsiplar; ta'lim jarayonida motivatsiya; ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumiyl va xususiy metodlar; umumiyl pedagogik texnologiyalar; ta'lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumiyl psixologiya: umumiyl psixologiyaning sohalari. yosh va pedagogik psixologiya: ta'limni va bilimlarni o'zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta'lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo'lg'usi o'qituvchi shaxsiy sifatlari; pedagogik

qobiliyat; nazariya va amaliyot haqida bilim berishi borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak*.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma ketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – mutaxassislik doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Mutaxassislik bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya:**

- sport diyetologgi,
- pedagog.

#### **2.3.2. 70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lif shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1560	52
Tanlov fanlar	240	8
Ilmiy faoliyat	1800	60

#### **2.3.3. 70910401 – Gigiyena: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi:**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>1560</b>	<b>52</b>	
1.01	382ITME2301	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	382SGEN2302	Sport genetikasi	120	4	1
1.03	382SPBX2303	Sport bioximiysi	180	6	1
1.04	382OHFI2304	Odam va hayvonlar fiziologiyasi	120	4	1
1.05	382DSPD2305	Diyetologiya va sport diyetologiyasi (1-qism)	120	4	1
1.06	382DSPD2306	Diyetologiya va sport diyetologiyasi (2-qism)	120	4	2

1.07	382SFIZ2307	Sport fiziologiyasi	120	4	2
1.08	382STIB2308	Sport tibbiyoti	180	6	2
1.09	382SVGP2309	Sportda vitaminlar va gormonlar bioximiysi (1-qism)	120	4	2
1.10	382SVGP2310	Sportda vitaminlar va gormonlar bioximiysi (2-qism)	120	4	3
1.11	382SPGG2311	Sport gigiyenasi (1-qism)	120	4	2
1.12	382SPGG2312	Sport gigiyenasi (2-qism)	120	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>240</b>	<b>8</b>	<b>3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar (2 ta fan)</i>	240	8	3
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
	382ITMI2301	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash	1110	37	1,2,3,4
	382IPEI2302	Ilmiy pedagogik ish	240	8	1,2,3
	382IAML2303	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	450	15	4
		<b>Jami</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning asosiy o'quv rejasi va fan dasturlari, malaka, amaliyat, attestasiya, sportda chidamkorlik, sport bioximiysi, sport farmakologiyasi, sport diyetologiyasi, sport gigiyenasi, biomolekulalar, sport fiziologiyasi, sport tibbiyoti, genetika, genomika, fizиologiya, biokimyo, molekulyar biologiya, biologik faol qo'shimchalar, doping, oqsil, uglevodlar, ferment, yog'lar, gen, genotip, irsiyat, sport genetikasi, ratsional ovqatlanish, musobaqa davri ovqatlanishi, mashg'ulot davri ovqatlanishi.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilar

**ISHLAB CHIQILGAN:**

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti



Rektor

M. Boltabayev

2023-yil « 20 »

**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
Oliy ta'limni rivojlantirish tадqiqotlari va  
ilg'or texnologiyalarni tаtbiq etish markazi

Direktor Sh. Yakubov

2023-yil « 21 » 08

O'zbekiston Milliy Olimpiya  
Qo'mitasi

Bosh kotib O. Kasimov

2023-yil « 20 »

O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati  
va sport vazirligi

Vazir o'rinnbosari

D. Raximova

2023-yil « 20 »

Respublika Olimpiya va paralimpiya  
sport fuqaroliga tayyorlash markazi

Direktor A. Mamadaliyev

2023-yil « 20 »



**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti**  
**70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka**  
**talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif muassasalari va asosiy**  
**kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Chirchiq sh.

“\_\_\_” 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vaziri o'rribosari D. Raximova, O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi bosh kotibi O. Kasimov, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori A. Mamadaliyev va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti rektori M. Boltabayev birgalikda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ishlab chiqilgan quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70910401 – Gigiya: sport diyetologiyasi magistratura mutaxassisligi:**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-ton farmoni, 2017-yil 20 apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-ton, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-ton, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-ton, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019/2020- o'quv yiliда O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-ton Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjalr, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjalarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati  
va sport vaziri o'rribosari**

D. Raximova

**O'zbekiston Milliy Olimpiya Qo'mitasi  
bosh kotibi**

O. Kasimov

**Respublika Olimpiya va paralimpiya sport  
turlariga tayyorlash markazi direktori**

A. Mamadaliyev

**O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport  
universiteti rektori**

M. Boltabayev